

Ibragimova Nilufar Isomiddin qizi

Webster universiteti magistranti

INGLIZ TILI SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA QISQACHA TAVSIYALAR

ANNOTATSIYA: Hozirgi kunda yurtimizda olib borilayotgan oliy ta’lim islohotining maqsad va vazifalaridan biri bu – o’sib kelayotgan kelajak avlodni chet tillariga mukammal o’rgatish, xorijiy tilda erkin so’zlasha oladigan kadrlarni tayyorlash va dunyo xalqlari madaniyati, urf odasi, ilm-fan tarmog’i kabi sohalarini o’rganib, tadbiq qila oladigan mutaxassislarni yetishtirish hisoblanadi.Ushbu maqolada OTM talabalari savodxonligini oshirish bo’yicha xorijiy tillarni zamonaviy va tezkor usullarda o’rgatish bo’yicha tavsiyalar keltirib o’tilgan.

Калит сўзлар: Pedagogik metodlar, innovatsion yondashuv, ingliz tili savodxonligi,raqamlashtirish, master-klass.

АННОТАЦИЯ: Одной из целей и задач проводимой сейчас в нашей стране реформы высшего образования является в совершенстве преподавать иностранные языки подрастающему будущему поколению, подготовить кадры, свободно владеющие иностранными языками, подготовить специалистов, владеющих иностранными языками. изучать и применять такие области, как культура народов мира, обычаи и сеть наук. В статье представлены рекомендации по обучению иностранным языкам современными и быстрыми способами повышения грамотности студентов высших учебных заведений.

Ключевые слова: Педагогические методы, инновационный подход, грамотность английского языка, цифровизация, мастер-класс

ABSTRACT: One of the goals and tasks of the higher education reform currently being carried out in our country is to perfectly teach foreign languages to the growing future generation, to train personnel who can speak foreign languages fluently, and to train specialists who can study and apply such fields as the culture of the peoples of the world, customs, and the network of science. This article presents recommendations for teaching foreign languages in modern and fast ways to improve the literacy of students of higher education institutions.

Key words: Pedagogical methods, innovative approach, English language literacy, digitization, master class

Kirish. Jahonda jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan integratsiyalashuv jarayoni va xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hamkorligi chet tillarni o’rganishga qiziqish, ehtiyoj va intilishni kuchaytirib yubordi. Rivojlangan mamlakatlar ta’limi amaliyotida xorijiy tillarni o’rganishda yozish qobiliyatining nechog’lik muhim ahamiyat kasb etishi, chet tilida yozilgan ishlarning o’qituvchilar tomonidan to’g’ri baholashning eng optimal usullari yo’lga qo’yligan. Dunyoda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda talabalarni akademik yozuvga sifatli tayyorlash uchun ta’lim dasturlari, baholash mezonlari, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo’llash metodikasini takomillashtirish, xorijiy tilda ilmiy uslubda yozish ko’nikmasini modernizatsiyalashтирish muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo’nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun o’quv jarayonini samarali tashkil etish, uning sifatini ta’minlashda zamonaviy metodlarni amaliyotga tatbiq etish hamda o’quv

fan dasturlarini takomillashtirish printsiplarini ishlab chiqish, o'quv fanlari mazmuni va ularni o'qitishdagi izchillik asoslarini mustahkamlash, o'quv mashg'ulotlarini (ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar) o'tkazish metodikasini takomillashtirish, talabalar o'rtasida mustaqillik g'oyalari asosida ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish tadbirlarini boyitish ta'limning eng dolzARB masalalari majmuini tashkil etadi. "Oliy ta'lim muassasalarining mutaxassisligi chet tili bo'lman professor-o'qituvchilarni chet (ingliz, nemis, frantsuz, xitoy va ispan) tillari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish dasturi"da belgilangani kabi hozirgi kunda chet tili savodxonligi OTM professor o'qituvchilari uchun talab qilinadigan zaruriy shartlardan biri sifatida olib qaraladi. Oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining kasbiy darajasi va o'z mahorat samarasini oshirish va ularni zamonaviy talablarga muvofiq shakllanishini tashkil etish maqsadida OTM pedagoglari tomonidan turli xil ochiq dars va mashg'ulotlar hamda "mahorat darslari" ("master-klass") hozirgi kunda ingliz tilida o'tkazilmoqda. Ingliz tilining o'quv-uslubiy jarayonga tatbiq etilishi quyidagi asosiy maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradi:

- ta'lim jarayoni qatnashchilari bilan o'zaro munosabatlarda etika normalari va nutq madaniyatini to'g'ri yo'lga qo'yish;
- pedagogika va kasb hunar bo'yicha muomala qilish nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish;
- ta'lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashni tashkil etish asoslarini yanada boyitish;
- kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilashga ta'sir ko'rsatadigan omillarni takomillashtirish;
- talabalarning bilim, mahorat va ko'nikmalarini reyting bo'yicha nazorat qilishni tashkil etish va ilmiy-metodik ta'minlash asoslarini amalda sinab ko'rish;
- oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarining global internet tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullaridan foydalangan holda, zamonaviy innovatsion pedagogika, axborotkommunikatsiya texnologiyalarini egallashi va ularni o'quv jarayoniga faol tatbiq etishi.

OTM miqiyosida turli xil ochiq ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning yoki "mahorat mакtab"larining ingliz tilida olib borilishi fanlaro'qitilish jarayonini zamonaviy tarzda takomillashishiga olib keladi. Ushbu omillarni inobatga olgan holda professor-o'qituvchilarining ingliz tilini bilish darajasini nazorat qilish jarayonida albatta, ingliz tilining o'quv-uslubiy tadbirlarga nisbatan tatbiq etilish holatini ham inobatga olish maqsadga muvofiқdir. Bunday darajadagi salohiyatli pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va xorijiy tillarni samarali o'zlashtirishi uchun OTM tomonidan qo'shimcha shart-sharoitlar yaratilishi zvrur. Shunday qulayliklardan biri – OTM miqiyosida pedagog kadrlar bilimini oshirish uchun qo'shimcha ingliz tili mashg'ulotlarining olib borilishi bu borada mas'uliyatni oshirishga undaydi. Professor-o'qituvchilarining ingliz tili savodxonligi darajasini belgilaydigan omillardan biri sifatida pedagog kadrlarning ingliz tilidagi ilmiy-tadqiqot ishlaridan xabardor bo'lishlari maqsadga muvofiқdir.

Bundan tashqari, ingliz tili savodxonligi OTM professor-o'qituvchilarining ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida ham aks etishi mumkin. Bunda muayyan ma'naviy tadbirning ingliz tilida olib borilishi yoki aynan ingliz tili savodxonligiga bag'ishlangan har xil madaniy tadbirlarning tashkil etilishi OTM pedagog kadrlarining ingliz tili savodxonligini belgilashi mumkin. Demak, OTM pedagog-kadrlarining ingliz tili savodxonligi ularning o'quv, ilmiy metodik, ilmiy tadqiqot, tashkiliy- metodik, ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy faoliyatlarida ham aks

etishi maqsadga muvofiq, ularning samarador bo'lishi til savodxonligi darajasining oshishiga olib keladi.

Foydalanimgan adabiyotlar :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-tonli qaroridan ilova
2. Oliy ta'lif muassasalari professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv, ilmiy metodik, ilmiy tadqiqot, tashkiliy – metodik, ma'naviy axloqiy va tarbiyaviy ishlar yuklamasini aniqlash qoidalarini tasdiqlash to'g'risidagi VM-2720-ton buyrug'i, 2015.
3. X.A.Mamatqulov . “Pedagoglarning xorijiy tillar bo'yicha kompetentligini amaliy yo'naltirilgan metodik-ta'minot asosida rivojlantirish”
4. Sh.Ashurov. \"Ingliz tilini savodxonligini oshirish imkoniyatlari\" journal.fledu.uz
5. Internet ma'lumotlari